

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA FONETIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISH
HAMDA INTEGRATSIYALASHNING DOLZARBLIGI****Kenjayeva Zilola Saminjon qizi****O'zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi**<https://doi.org/10.5281/zenodo.20485419>**Annotatsiya**

Mazkur maqolada boshlang'ich ta'lim jarayonida fonetik kompetensiyani rivojlantirish va integratsiyalashning pedagogik hamda metodik zaruriyati tadqiq etilgan. Tadqiqotda fonetik kompetensiyaning tarkibiy qismlari sifatida fonemik idrok, talaffuz aniqligi, orfoepik meyorlarga rioya qilish, urg'u va intonatsiyani qo'llash malakalari tahlil qilingan. Maqolada o'zbek va xorijiy olimlarning (T.Ziyadova, N.Bekniyazova, G.Ahmedova, A.Bobomurodova va b.) ilmiy qarashlari qiyosiy o'rganilib, fonetik kompetensiyaning semantik-pragmatik hamda kommunikativ funksiyalari yoritilgan. Shuningdek, fonetik ko'nikmalarni ona tili darslaridan tashqari matematika, musiqa va xorijiy tillar bilan integratsiyalash o'quvchilarning umumiy savodxonligi hamda yozuv madaniyatini yuksaltirishning asosi ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: fonetik kompetensiya, boshlang'ich ta'lim, integratsiyalash, fonemik idrok, nutq madaniyati, orfoepik meyor, intonatsiya, kommunikativ qobiliyat, metodik yondashuv, interfaol metodlar.

Kenjayeva Zilola Saminjon qizi**Independent Researcher at the National University of Uzbekistan****Abstract**

Abstract: This article examines the pedagogical and methodological necessity of developing and integrating phonetic competence in the primary education process. The research analyzes the components of phonetic competence, such as phonemic perception, pronunciation accuracy, adherence to orthoepic norms, and the use of stress and intonation. The article provides a comparative study of the scientific views of Uzbek and foreign scholars (T. Ziyadova, N. Bekniyazova, G. Ahmedova, A. Bobomurodova, etc.), highlighting the semantic-pragmatic and communicative functions of phonetic competence. Furthermore, it substantiates that integrating phonetic skills not only in native language lessons but also with mathematics, music, and foreign languages is fundamental to enhancing students' general literacy and writing culture.

Key words: phonetic competence, primary education, integration, phonemic perception, speech culture, orthoepic norms, intonation, communicative ability, methodical approach, interactive methods.

Кенжаева Зилола Саминжон кизи**Самостоятельный соискатель Национального университета
педагогике Узбекистана****Аннотация**

Аннотация: В данной статье исследуется педагогическая и методическая необходимость развития и интеграции фонетической компетенции в процессе начального образования. В исследовании проанализированы такие компоненты фонетической компетенции, как фонематическое восприятие, точность произношения, соблюдение орфоэпических норм, использование ударения и интонации. В статье представлен сравнительный анализ научных

взглядов узбекских и зарубежных ученых (Т. Зиядова, Н. Бекниязова, Г. Ахмедова, А. Бобомуродова и др.), освещены семантико-прагматические и коммуникативные функции фонетической компетенции. Также обосновано, что интеграция фонетических навыков не только на уроках родного языка, но и с математикой, музыкой и иностранными языками является основой повышения общей грамотности и культуры письма учащихся.

Ключевые слова: фонетическая компетенция, начальное образование, интеграция, фонематическое восприятие, культура речи, орфоэпические нормы, интонация, коммуникативные способности, методический подход, интерактивные методы.

KIRISH

Fonetik kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish milliy dastur bilan uyg'un holda amalga oshiriladi, chunki u o'quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirishni ta'lim sifatining muhim ko'rsatkichi sifatida belgilaydi. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2025-yil 17-martdagi 89-sonli buyrug'ida ilg'or o'qituvchilar tajribasini ommalashtirish tartibi belgilangan bo'lib, fonetik kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha samarali metodik yondashuvlarni keng qo'llash va targ'ib qilish aynan shu hujjat bilan uyg'un keladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 15-avgustdagi 666-sonli qarorida ta'kidlanganidek, o'quv jarayonida fonetik mashqlar samarador bo'lishi uchun tinch va ijobiy muhit zarur. Ushbu hujjat maktablarda shunday muhitni yaratishni maqsad qilib qo'yadi, bu esa fonetik mashqlarni muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun qulay sharoit yaratadi. Fonetik kompetensiya tushunchasi o'zida fonemik idrok, talaffuz aniqligi, orfoepik me'yorlarga rioya qilish, urg'u va intonatsiyani qo'llash kabi komponentlarni mujassamlashtiradi. U o'quvchining savodxonligi, nutq madaniyati va kommunikativ qobiliyatini rivojlantirishda asosiy omil bo'lib, uni boshlang'ich ta'limga integratsiyalash nafaqat lingvistik, balki pedagogik zaruriyatdir. Boshlang'ich ta'limda fonetik kompetensiyani rivojlantirishning dolzarbligi, bir tomondan, milliy ta'lim mazmunini takomillashtirish bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan, global ta'lim tendensiyalariga hamohang tarzda innovatsion yondashuvlarni joriy etish zaruriyati bilan belgilanadi. Chunki fonetik kompetensiya faqat o'qish yoki yozuv jarayonida emas, balki o'quvchining shaxsiy nutq madaniyatini, muloqotda ishonchli va ravon fikr bildirish salohiyatini ham shakllantiradi. Bu esa kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida uning keyingi ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zaruriy shart hisoblanadi. Fonetik kompetensiya tushunchasi ta'lim nazariyasi va amaliyotida dolzarb masala bo'lib, uni boshlang'ich ta'lim jarayoniga integratsiyalash — savodxonlikning barqaror poydevorini yaratish, nutq madaniyatini shakllantirish va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning muhim omili sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan, fonetik kompetensiyani rivojlantirish masalasi pedagogik muammo bo'lishi bilan birga, zamonaviy ta'limning sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan zaruriy ehtiyojdir.

Pedagogika va tilshunoslik fanida "kompetensiya" tushunchasi o'quvchi yoki shaxsning muayyan sohadagi bilim, ko'nikma va malakalarini samarali qo'llay olish, ularni amaliy vaziyatlarda mustaqil tatbiq etish qobiliyati sifatida izohlanadi. Pedagogik adabiyotlarda kompetensiya "bilimlarni o'zlashtirish"dan farqli o'laroq, "bilimlarni hayotiy faoliyatga integratsiyalash" bilan ajralib turadi. Masalan, I.P.Bolkovning lingvistik kompetensiya haqidagi nazariyasida kompetensiya insonning til qoidalarini ichki idrok qilish qobiliyati sifatida talqin etilgan bo'lsa, zamonaviy pedagogik yondashuvlarda bu tushuncha ko'proq kommunikativ faoliyat

bilan bog'lanadi. Demak, kompetensiya nazariy bilim, amaliy ko'nikma va shaxsiy tajribani o'zida mujassamlashtirgan murakkab integrativ sifatdir.

METODLAR

Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil va olimlarning ilmiy yondashuvlarini o'rganish metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'zbek olimlari fonetik kompetensiyani ko'proq savodxonlik bilan bog'lasa, xorijiy olimlar uni kommunikativ kompetensiya va fonologik idrok nuqtai nazaridan talqin etadi. Bu esa milliy va xorijiy tajribani integratsiyalash zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqotda T.U.Ziyadova, N.I.Bekniyazova, G.M.Ahmedova, A.Ya.Bobomurodova kabi olimlarning ishlaridagi metodik asoslar tahlil qilindi. Xususan, N.I.Bekniyazova tomonidan taklif etilgan fonema ajratish, bo'g'in tuzish va talaffuzni mustahkamlashga qaratilgan bosqichma-bosqich o'quv topshiriqlari tizimi o'rganildi. G.M.Ahmedova yondashuvidagi laboratoriya mashqlari va amaliy faoliyat ustuvorligi metodik asos sifatida ko'rib chiqildi. Fonetik kompetensiyani shakllantirish uchun, avvalo, ta'lim muhiti muhim ahamiyat kasb etadi. Sinfda shovqinsiz, ijobiy psixologik muhit bo'lishi talab qilinadi, chunki talaffuz mashqlari diqqatni jamlash va takroriy mashqlarni muntazam bajarishni talab etadi. Davlat ta'lim standartlariga asoslangan o'quv dasturlari fonetik mashqlarni ona tili darslariga tizimli kiritishi, qo'shimcha materiallar orqali mustahkamlashi zarur. Shuningdek, o'qituvchining tayyorgarligi, metodik yondashuvlarni to'g'ri tanlashi va qo'llay olishi ham fonetik mashqlar samaradorligini belgilaydi. Har bir bola nutqiy rivojlanishda turli darajada bo'lgani uchun individual yondashuv, ayniqsa talaffuzda qiynalayotgan bolalarga maxsus mashqlar taklif qilish, muhim shartlardan biridir.

Didaktik imkoniyatlarni amalga oshirishda texnologik sohalar alohida o'rin tutadi. Didaktik texnologiyalar, xususan, bosqichlilik (bo'g'indan so'zga, so'zdan gapga o'tish), tizimlilik (mashqlarni muntazam o'tkazish) va integrativlik (fonetik mashqlarni ona tili, o'qish, musiqa va teatr darslari bilan bog'lash) tamoyillari samaradorlikni oshiradi. Axborot texnologiyalaridan foydalanish esa metodik yondashuvni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, audio yozuvlar o'quvchilarga tovushlarni to'g'ri eshitib takrorlash imkonini bersa, interaktiv mashqlar fonemik idrokni mustahkamlashda yordam beradi. Shu bilan birga, o'yin texnologiyalari, rolli mashqlar va tez aytishlar bolalarda motivatsiyani oshiradi, jarayonni qiziqarli va samarali qiladi.

Fonetik kompetensiyani rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillarni uch asosiy guruhga ajratish mumkin: psixologik, lingvistik va pedagogik. Psixologik omillarga bolalarning diqqat, xotira va nutqiy faoliyatga bo'lgan motivatsiyasi kiradi. Fonetik mashqlar muvaffaqiyatli bo'lishi uchun o'quvchilarda nutqqa qiziqish uyg'otilishi zarur. Lingvistik omillar esa fonemik idrok, artikulyatsiya va intonatsiya kabi jarayonlarni qamrab oladi. Aynan bu elementlar talaffuzni to'g'ri shakllantirishning asosi hisoblanadi. Pedagogik omillar esa dars jarayonining samarali tashkil etilishi, metodik rejalashtirish va o'qituvchining kasbiy mahorati bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, ijtimoiy omillar – ota-onalar bilan hamkorlik, jamiyatning nutqiy madaniyatga bo'lgan talablari ham jarayonga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Didaktik imkoniyatlarni kengaytiruvchi asosiy omil – bu o'qitish vositalaridir. An'anaviy vositalar – darslik, mashq daftarlar, tez aytishlar, she'r va qo'shiqlar fonetik mashqlarni samarali tashkil etish imkonini beradi. Innovatsion vositalar esa interaktiv doska, raqamli mashqlar banki va onlayn platformalardan foydalanishni nazarda tutadi. Bunday vositalar metodikaning zamonaviy shaklda qo'llanishiga imkon yaratadi. Ko'rgazmali vositalar – artikulyatsion sxemalar, tovush kartochkalari va fonetik jadvallar – bolalarga vizual yordam beradi. Shuningdek, teatrlashtirilgan

mashqlar, ijodiy topshiriqlar, qo'shiqlar va o'yinlar fonetik kompetensiyani mustahkamlash uchun samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, A.Ya.Bobomurodova ilgari surgan audiovizual resurslar va interfaol o'yin-topshiriqlardan foydalanish metodikasi tahlilga tortildi.

NATIJALAR

Olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

T.U.Ziyadova tadqiqotlarida fonetik birliklar faqat tovush shakli emas, balki mazmun va pragmatik maqsadni shakllantirish vositasi ekanligi isbotlandi. Bu muloqotning to'g'ri tushunilishiga xizmat qiladi.

N.I.Bekniyazova fonetik kompetensiyani rivojlantirishning metodik asosda bosqichli mashq tizimini ishlab chiqdi.

G.M.Ahmedova fonetik kompetensiyaning tarkibiy qismlarini (fonemik idrok, talaffuz, urg'u, intonatsiya) aniq ko'rsatib, amaliy shakllanishini asosladi.

A.Ya.Bobomurodova innovatsion metodlarni integratsiyalash o'quvchilarning savodxonligini va kommunikativ qobiliyatini oshirishini ko'rsatdi.

M.X.Jumakulova, Z.A.Xakimova, N.T.Mamasidikova, Sh.Jalilova, G.Turganbekova, X.K.Muhammadiyeva va S.S.Tajbenova kabi olimlarning izlanishlari fonetik kompetensiyani tizimli rivojlantirishning nazariy va amaliy asosini yaratdi. Ularning tadqiqotlari interfaol metodlar, individual xususiyatlarni hisobga olish va baholash usullarining samaradorligini tasdiqladi. Fonetik kompetensiyani boshlang'ich ta'lim jarayoniga integratsiyalash zarurati bo'yicha tadqiqot olib borgan. U interfaol va innovatsion metodlar yordamida talaffuz va nutq madaniyatini shakllantirish usullarini o'rgangan. Jalilova o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olib, pedagogik yechimlar ishlab chiqqan. Tadqiqot natijalari fonetik kompetensiyani tizimli rivojlantirishga xizmat qiladi. U talaffuz mashg'ulotlari va nutqiy ko'nikmalarni baholashning amaliy usullarini ishlab chiqqan. Shu bilan birga, Jalilovanning ishlari pedagogik jarayonda fonetik kompetensiyani samarali integratsiyalashga asos bo'ladi.

G. Turganbekova fonetik ko'nikmalarni boshlang'ich sinflarda rivojlantirish va integratsiyalashni tadqiq qilgan. U talaffuz mashg'ulotlari va interfaol metodlarni amaliy misollar bilan ko'rsatgan. Turganbekova pedagogik muammolarni aniqlash va yechimlar ishlab chiqish orqali o'quvchilarning nutq madaniyati va fonetik ko'nikmalarini samarali shakllantirishni tavsiya qilgan. Tadqiqot fonetik kompetensiyani tizimli rivojlantirishning nazariy va amaliy asosini beradi. U interfaol va individual yondashuvlarni qo'llashning samaradorligini baholagan. Natijalar fonetik kompetensiyani ta'lim jarayoniga integratsiyalash zaruratini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA

Boshlang'ich sinf o'quvchisining keyingi bilim olish bosqichlari uchun poydevor hisoblangan ushbu davrda fonetik kompetensiyani integratsiyalash bir necha sabablar bilan izohlanadi. Birinchidan, u savod o'rgatishning markazida turadi; tovushlarni farqlashdagi sustlik yozuv va o'qishda jiddiy muammolarga olib keladi. Ikkinchidan, integratsiya to'g'ri o'qish va ifodali nutq madaniyatini shakllantiradi. Uchinchidan, fonetik jihatdan toza nutq kommunikativ muloqot samaradorligini oshiradi. To'rtinchidan, u yozuv va imlo malakalariga bevosita ta'sir qiladi, chunki tovush-harf munosabatini anglash imlo qoidalarini puxta o'zlashtirishga yordam beradi. Har bir fan orqali fonetik kompetensiyani qo'llab-quvvatlash umuman olganda, fonetik mashqlarni turli fanlarga integratsiyalash quyidagi natijalarni beradi. O'quvchilar fonetik mashqlarni turli vaziyatlarda qo'llashni o'rganadilar. Fonetik kompetensiya faqat ona tili bilan cheklanib qolmaydi, balki hayotiy nutqiy vaziyatlarga ham moslashadi. O'quvchilarda talaffuz, ravonlik va intonatsiya

ko'nikmalari muntazam mustahkamlanadi. Har bir fan o'z mazmuni orqali fonetik kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Dars jarayonida fonetik mashqlarni qo'llash metodikasi o'quvchilarning nutqiy rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. Ona tili darslarida tovush-harf bog'lanishi mustahkamlanadi, o'qish darslarida ravonlik va ifodali talaffuz rivojlanadi, musiqa darslarida intonatsiya mashq qilinadi, boshqa fanlarda esa fonetik mashqlar hayotiy vaziyatlarga moslashadi. Shu tariqa fonetik kompetensiya barcha fanlar orqali izchil va tizimli rivojlanadi.

Xulosa.

Hozirgi kunda fonetik mashqlarning darslarda epizodik ko'rinishda berilishi o'quvchilarda talaffuz aniqligining yetarli shakllanmasligiga sabab bo'lmoqda. Shuningdek, fonetik kompetensiya boshqa fanlar bilan ham uzviy bog'liq: adabiyotda ifodali o'qish, xorijiy tillarda yangi tilni o'zlashtirish, musiqa fanida ritm va texnologiyada og'zaki yo'riqlarni anglash uchun u tayanch vazifasini o'taydi. Fonetik kompetensiyani integratsiyalash nafaqat nutqiy qobiliyatni va savodxonlikni oshiradi, balki o'quvchilarning ijodiy tafakkurini ham qo'llab-quvvatlaydi. Bu jarayon xalqaro tajribalar bilan ham mustahkamlanib, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri. "Maktab ta'limi tizimi xodimlari uchun 'kasbiy rivojlanish kuni' va 'kasbiy rivojlanish soati' tadbirlarini tashkil etish tartibini belgilash to'g'risida"gi 246-son buyrug'i. — 2024-yil 7-avgust. — Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi axborotnomasi.
2. Musayeva, S. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini ingliz tili orqali rivojlantirish xususiyatlari. – CyberLeninka elektron ilmiy platformasi, 2022.
3. Safarova, G. Sh. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ona tili faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish. – CyberLeninka elektron ilmiy platformasi, 2022.
4. Xonto'rayeva, Sh. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar. – FLL JDPU ilmiy jurnali, 2021, №4, – B. 23–29.
5. Qodirova G. M. Ona tili darslarida nutq madaniyati va talaffuzni shakllantirish metodikasi // Pedagogik tadqiqotlar ilmiy jurnali. – Namangan, 2023. – №3. – B. 41–47.
6. Ergashev S. B. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuz va fonetik ko'nikmalarini rivojlantirish metodik asoslari // Ta'lim va innovatsiyalar ilmiy-amaliy jurnali. – Toshkent, 2022. – №6. – B. 12–18.
7. Xolmurodova N. T. Ona tili darslarida innovatsion metodlar asosida fonetik kompetensiyani rivojlantirish // Ilmiy axborot to'plami. – Toshkent, 2023. – №1. – B. 55–62.